

ZIYONLI BOLALAR KONTENTLARINI NAZORAT QILISH USULLARI HAMDA MEXANIZMLARI

Boboxonova Feruza Muhiddinovna,

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi

e-mail: feruza231191@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola media madaniyati va bolalar uchun media kontentining O'zbekistondagi holati, rivojlanishi va media madaniyatining jamiyatga ta'siri, amalga oshirilayotgan loyihalar va xalqaro tashkilotlarning roli yoritilgan. Maqolada bolalar media kontentining turlari, uni yaratishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar batafsil bayon etilib, shuningdek, bolalar jurnalistikasining ahamiyati tushuntirilgan.

Maqolaning asosiy qismi bolalar uchun zararli bo'lgan axborot turlari va ularni nazorat qilish usullari va mexanizmlariga bag'ishlangan bo'lib, bu borada ota-onalar nazorati, pedagoglar va ta'lim muassasalari, davlat organlari va qonunchilik, media platformalari va kontent yaratuvchilar, shuningdek, jamiyat va nodavlat tashkilotlarning roli atroflicha ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, kontent, yosh, madaniyat, internet, milliy, zamonaviy materiallar, xavfsizlik, nazorat, axborot vositasi.

METHODS AND MECHANISMS FOR CONTROLLING HARMFUL CHILDREN'S CONTENT

Abstract: This article discusses the state of media culture and media content for children in Uzbekistan, its development, and the impact of media culture on society, ongoing projects, and the role of international organizations. The article describes in detail the types of children's media content, the aspects that should be paid attention to when creating it, and also explains the importance of children's journalism.

The main part of the article is devoted to the types of information that are harmful to children and the methods and mechanisms for controlling them. In this regard, the role of parental control, educators and educational institutions, government bodies and legislation, media platforms and content creators, as well as society and non-governmental organizations, is examined in detail.

Keywords: children, content, age, culture, internet, national, modern materials, security, control, media.

МЕТОДЫ И МЕХАНИЗМЫ КОНТРОЛЯ ВРЕДНОГО ДЕТСКОГО КОНТЕНТА

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние медиакультуры и медиаконтента для детей в Узбекистане, его развитие, влияние медиакультуры на общество, реализуемые проекты, роль международных организаций. В статье подробно описываются виды детского медиаконтента, аспекты, на которые следует обращать внимание при его создании, а также объясняется важность детской журналистики.

Основная часть статьи посвящена видам информации, наносящей вред детям, методам и механизмам контроля над ними. В этой связи подробно рассматривается роль родительского контроля, педагогов и образовательных учреждений, государственных органов и законодательства, медиаплатформ и создателей контента, а также общества и неправительственных организаций.

Ключевые слова: дети, контент, возраст, культура, интернет, национальный, современные материалы, безопасность, контроль, медиа.

Kirish. Asosan ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta, internet va boshqalar) orqali tarqaladigan madaniyat "media madaniyati" deb ataladi. Bu tushuncha ommaviy axborot vositalarining jamiyatning fikri, didi va qadriyatlariga ta'sirini anglatadi.

O'zbekistonda media madaniyati rivojlanish bosqichida. Televideniye eng ommabop axborot vositasi bo'lib, davlatga qarashli va xususiy telekanallar faoliyat yuritadi. Internet ham aholi, ayniqsa yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda, biroq ayrim tanqidiy veb-saytlar bloklangan.

O'zbekistonda media madaniyatining rivojlanishiga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmogda. UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash, axborotga erishish huquqini kengaytirish va media savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlamogda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi yuzasidan yig'ilish o'tkazib: “To'g'ri bugungi kunda yoshlar ma'naviyati bilan hamma shug'ullanyapti, lekin zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularni targ'iboti, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha professional tashkilot hali yo'q”, deya fikr bildirdi va aynan president tashabbusi bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Ularning asosiy vazifasi zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularni targ'iboti, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi.[1]

Bolalar media kontenti – bu bolalarga atalgan videolarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu kontent ayniqsa milliy ruhdagi zamonaviy materiallar yaratmoqchi bo'lgan ijodkorlar uchun katta imkoniyat hisoblanadi. Tadqiqotchilarning aytishicha, bolalar media muhitiga ega bo'lish huquqiga ega va kattalar bu muhitda muhim rol o'ynaydi. Bolalarning o'zlari ham kontentda ishtirok etishadi.

Ijodkorning yana bir betakror qirradi bolalar ruhiyatini ruhshunoslarga xos bolalar tilida tadqiq etishida ko'zga tashlanadi.[2] Bolalar uchun media kontent bolalarning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish bosqichlariga moslashtirilgan bo'ladi. Bu kontent bolalarni o'qitish, ko'ngil ochish yoki ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga yordam berish maqsadida yaratiladi.

Bolalar uchun media kontentning turlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin, masalan:

- Televizion ko'rsatuvlar va filmlar: multfilmlar, bolalar uchun seriallar, ta'limiy ko'rsatuvlar va bolalar filmlari.

- Videoo'yinlar va mobil ilovalar: bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlar, ta'limiy ilovalar va interaktiv hikoyalar.

- Kitoblar va audio kitoblar: rasmi kitoblar, ertaklar, she'rlar va bolalar uchun romanlar.

- Musiqqa va qo'shiqlar: bolalar uchun yaratilgan qo'shiqlar va musiqiy hikoyalar.

- Internet kontenti: bolalar uchun mo'ljallangan veb-saytlar, YouTube kanallari va boshqa onlayn platformalardagi videolar.

- Podkastlar: bolalar uchun mo'ljallangan audio hikoyalar va ta'limiy podkastlar.

Bolalar uchun media kontentni yaratishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim:

- Yoshga moslik: kontent bolaning yoshiga mos bo'lishi, uning tushunish darajasi va qiziqishlariga javob berishi kerak.

- Ta'limiy qiymat: kontent bolalarga yangi narsalarni o'rgatishi, ularning bilimlarini kengaytirishi va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishi mumkin.

- Ko'ngilochar bo'lish: kontent bolalarni zeriktirmasligi, ularning e'tiborini jalb qilishi va quvonch bag'ishlashi kerak.

- Ijtimoiy va hissiy rivojlanish: kontent bolalarga do'stlik, hamkorlik, empatiya va boshqa ijobiy fazilatlarni o'rgatishi mumkin.

- Xavfsizlik: onlayn kontent bolalar uchun xavfsiz bo'lishi, ularni zararli yoki nomaqbul materiallardan himoya qilishi kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar uchun media kontentni tanlashda ehtiyotkor bo'lishlari, bolalarning yoshiga mos va foydali kontentni tanlashlari, shuningdek, ularning media iste'molini nazorat qilishlari muhimdir.

Bolalar jurnalistikasi bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan, ular tomonidan yaratilgan yoki ular haqida ma'lumot beradigan jurnalistika sohasi hisoblanadi. Uning maqsadi yosh auditoriyani qiziqtirish, ularga ta'lim berish, ularning fikrlarini ifoda etishga yordam berish va ularni fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etishga undashdir.

Bolalar uchun ziyonli bo'lgan axborotni nazorat qilish ota-onalar, pedagoglar, davlat organlari va media platformalarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab

qiladigan muhim vazifadir. Bu bolalarning jismoniy, ruhiy va axloqiy rivojlanishini himoya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ziyonli axborotning bir necha turlari mavjud. Ular:

- Zo'ravonlik va tajovuzni targ'ib qiluvchi kontent: Bu real hayotdagi zo'ravonlik sahnalari, jangari o'yinlar, tajovuzkor xatti-harakatlarni madh etuvchi materiallar bo'lishi mumkin.

- Qo'rquinchli va vahimali kontent: Bolalarning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ularda qo'rquv, vahima va nevrozlarni keltirib chiqaradigan materiallar (masalan, juda qo'rquinchli filmlar, hikoyalar).

- Axloqsiz va pornografik kontent: Bolalar uchun mo'ljallanmagan, jinsiy aloqalarni tasvirlovchi yoki shunga ishora qiluvchi materiallar.

Bunga misol, ko'pchiligimizga ma'lum Youtube platformasida bolalar sevib tomosha qiladigan Cocomelon kontenti mavjud, aynan noyabr oyida boshlangan birinchi mavsumning 8-qismida shunday tasvirlar bor. Niko ismli bola o'zining oilaviy surati uchun nima kiyishni tanlashda qiynalayotgan paytida ikkita gey juftlik: “Qaysi jinsni tanlashing o'zingga bog'liq, hammasi ixtiyoringda, biz seni qo'llab-quvvatlaymiz!” degan mazmunda qo'shiq kuylaydi.



Cocomelonni yaqinda Disney kompaniyasining bosh direktori Bob Igerga yaqin bo'lgan ikkita sobiq menejerini sotib oldi. Kevin Mayer va Tom Staggs CoComelon-dan sotib olgan Candle Mediaga asos solgan Disney kompaniyasining yuqori lavozimli rahbarlari edi.

Kevin Mayer 2000 yilda Playboy va 2020 yilda TikTok bosh direktori etib tayinlangan. U Disney+ ni yaratishda ham faol ishtirok etgan va Disney kompaniyasida maslahatchi hisoblanadi. Bu shaxslarni yaqindan tanigan kishi, bu ma'lumotlar ko'p narsani anglatishi mumkinligini tushunib yetadi.

Italiyalik jurnalist Karina Mishel Cocomelonning aynan shu qismiga nisbatan o'zining Twitter sahifasida shunday yozadi: “Biz polaponlarimiz gey yoki transseksual bo'lishga "tayyorlanayotgan"ligini qanday bilishimiz mumkin. Amerika fuqarolik erkinliklari ittifoqi (ACLU) hozirda Yevropa Ittifoqidagi 500 dan ortiq LGBTQga qarshi loyihalarni kuzatib konservatorlar "uyg'ongan" madaniyat aks etgan turli filmlar ishlashmoqda. Oldinlari bu atama qora tanli jamoalarda qo'llanilgan va ijtimoiy adolatsizlik va irqiy tenglik haqida ma'lumotga ega bo'lgan kishiga nisbatan ishlatilgan. Hozir bu ibora konservatorlar tomonidan progressiv qadriyatlarga qarshi to'ntarish sifatida ishlatiladi. Aytmoqchimanki, eng muhimi an'anaviy oila tarkibini butunlay chiqarib tashlagan holda, yangi avlodning miyasini yuvish holatini boshdan

kechirayotganimizni tushunishimiz kerak. Bolalarimizni qo'riqlaylik, ularni qattiq himoya qilaylik, chunki yomon odamlar uxlamaydi”[3] deb qayg'u bilan yozgan.

- Zararli odatlarni targ'ib qiluvchi kontent: Narkotik moddalar, alkogol, tamaki kabi zararli vositalarni iste'mol qilishni madh etuvchi materiallar.

- Kamsituvchi va haqoratlovchi kontent: Irqiy, etnik, diniy yoki boshqa belgilariga ko'ra kamsitish, haqoratlash yoki tahqirlashni o'z ichiga olgan materiallar.

- Noto'g'ri va yolg'on axborot: Bolalarning dunyoqarashini buzishi, ularni chalg'itishi yoki noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin bo'lgan materiallar (masalan, soxta yangiliklar, ishonchsiz ilmiy ma'lumotlar).

- Onlayn ta'qib va kiberbulling: Bolalarga nisbatan onlayn tazyiq o'tkazish, qo'rqitish, haqoratlash yoki sharmanda qilish holatlari.

Nazorat qilish usullari va mexanizmlari nimalardan iborat bo'lishini ko'rib chiqamiz.

1. Ota-onalar nazorati:

- **Ochiq muloqot:** Bolalar bilan internet va media kontent haqida ochiq va ishonchli muloqot o'rnatish. Ularga qanday axborot xavfli bo'lishi mumkinligini tushuntirish.

- **Ekran vaqtini cheklash:** Bolalarning media qurilmalaridan foydalanish vaqtini belgilash va unga rioya qilish.

- **Kontentni birgalikda ko'rish:** Bolalar bilan birga ko'rsatuvlar, filmlar yoki videolar tomosha qilish va muhokama qilish.

- **Filtrlash va bloklash dasturlari:** Kompyuterlar, smartfonlar va boshqa qurilmalarda yoshga mos bo'lmagan kontentni filtrlash va bloklash uchun maxsus dasturlardan foydalanish.

- **Qurilma sozlamalari:** Operatsion tizimlar va ilovalarning yoshga mos kontentni cheklash bo'yicha sozlamalaridan foydalanish (masalan, YouTube Kids, SafeSearch).

- **Onlayn faoliyatni kuzatish:** Bolalarning internetda qanday saytlarga kirayotgani, qanday ilovalardan foydalanayotganini kuzatib borish.

- **Maxfiylik sozlamalarini tushuntirish:** Bolalarga onlayn shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish qoidalari va maxfiylik sozlamalari haqida tushuncha berish.

2. Pedagoglar va ta'lim muassasalari:

- **Media savodxonligi bo'yicha darslar:** O'quvchilarga media kontentni tanqidiy baholash, yolg'on axborotni aniqlash va xavfsiz onlayn xulq-atvor qoidalarini o'rgatish.

- **Maktab internetini filtrlash:** Ta'lim muassasalarida bolalar uchun zararli bo'lgan veb-saytlarni bloklash.

• **Ota-onalar bilan hamkorlik:** Ota-onalarni bolalarning media iste'moli va onlayn xavfsizligi bo'yicha xabardor qilish va ularga maslahatlar berish.

3. Davlat organlari va qonunchilik:

• **Ziyonli kontentga qarshi qonunlar:** Bolalar uchun zararli bo'lgan kontentni ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilishga qarshi qonuniy choralar ko'rish.

• **Nazorat qiluvchi organlar:** Bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlarining faoliyatini kuchaytirish.

• **Internet provayderlari bilan hamkorlik:** Ziyonli veb-saytlarni bloklash va filtrlash bo'yicha internet provayderlari bilan hamkorlik qilish.

• **Xalqaro hamkorlik:** Bolalarga qarshi onlayn jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

4. Media platformalari va kontent yaratuvchilar:

• **O'z-o'zini tartibga solish:** Media platformalarining bolalar uchun mo'ljallangan kontentga nisbatan qat'iy qoidalar o'rnatishi va ularga rioya qilishi.

• **Yoshga mos reyting tizimlari:** Kontentni yoshga mosligiga qarab belgilash va foydalanuvchilarni ogohlantirish (albatta +0, +6, +12 belgilari bo'lishi kerak).

• **Foydalanuvchi shikoyatlarini ko'rib chiqish:** Ziyonli kontent haqidagi shikoyatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish va tegishli choralar ko'rish.

• **Mas'uliyatli kontent yaratish:** Bolalar uchun ijobiy, ta'limiy va rivojlantiruvchi kontent yaratishga e'tibor qaratish.

5. Jamiyat va nodavlat tashkilotlar:

• **Axborot kampaniyalari:** Bolalar va ota-onalarni onlayn xavfsizlik va ziyonli kontentning xavfi haqida xabardor qilish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish.

• **Nodavlat tashkilotlarning faoliyati:** Bolalar huquqlarini himoya qilish, onlayn xavfsizlikni ta'minlash va ziyonli kontentga qarshi kurashish bo'yicha loyihalar amalga oshirish.

Maqolamizda bolalarga bag'ishlangan kontentlarni har jihatdan birma-bir ko'rib chiqdik. Endi yuqorida aytib o'tilgan muammoli vaziyatlarga qanday yechim berish mumkin. Bizning har bir muammoga nisbatan alohida yechim takliflarimiz bor.

• **Internetning chegarasizligi:** Internetdagi kontentni to'liq nazorat qilish qiyin. Bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

• **Texnologiyalarning tezkor rivojlanishi:** Ziyonli kontentning yangi shakllari tezda paydo bo'lishi mumkin. Nazorat mexanizmlari ham doimiy ravishda takomillashib borishi kerak.

• **Ota-onalarning bandligi va xabardorligining yetarli emasligi:** Ota-onalarni onlayn xavfsizlik bo'yicha o'qitish va ularga amaliy yordam ko'rsatish muhim.

• **Bolalarning qiziquvchanligi va cheklovlarni chetlab o'tishga urinishi:** Bolalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish va ularga xavfsizlik qoidalarini tushuntirish muhim.

Bolalar uchun ziyonli bo'lgan axborotni nazorat qilish – bu uzluksiz jarayon bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab qiladi. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali bolalarimizni zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Xulosa. Media kontentni bolalar uchun xavfsiz qilish uchun quyidagi asosiy choralarni ko'rish muhim:

1. **Kontentni nazorat qilish:** Yaratilgan yoki ko'riladigan materiallarni qat'iy tekshirish, bolalar uchun xavfli yoki noo'rin bo'ladigan qismlarni olib tashlash.

2. **Yoshi mosligi:** Bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan platformalar va dasturlarni tanlash. Yoshi mosroq bo'lgan kontentni tanlash va "kechiktirilgan ko'rish" yoki maxfiylik sozlamalarini o'rnatish.

3. **Interaktivlikni nazorat qilish:** Bolalar bilan birga ekran oldida bo'ling, ularning qanday kontentni ko'rayotgani va qaysi joylarni ko'rishni davom ettirayotganini nazorat qiling.

4. **Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish:** Bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini tarqatmaslik va ularga qanday qilib internetda xavfsiz bo'lishni o'rgatish.

5. **Qoidalar va chegaralar:** Ekran vaqtini cheklash, vaqti-vaqti bilan ularga boshqa faoliyatlarni taklif qilish, ehtiyotkorlik bilan muhokama qilish.

6. **Yaxshi va salbiy misollarni ajratish:** Bolalarga qanday kontent zararli yoki salbiy bo'lishi mumkinligini tushuntirish va yaxshi namunalarga e'tibor qaratishni o'rgatish.

Xulosa qilib aytganda, bolalarimizni zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlash — bu doimiy va uzluksiz jarayon bo'lib, barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki va mas'uliyatini talab qiladi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga nazorat mexanizmlari ham doimiy takomillashib borishi shart. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali bolalarimiz uchun xavfsiz va foydali media muhitini yaratish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Safarov, B. Jamilova. Bolalalik – boqiylik timsoli yoxud muxbirlikning olis yo'llari T., 2011.

2. <https://x.com/karinamichelin/status/1737819630876369270?t=nFuuSwviLOTe7ImNGUb0MQ&s=09>

3. <https://www.kun.uz/news/2025/05/15/bolalar-kontentini-rivojlantirish-markazi-tashkil-qilindi>